

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INNOVATSION

YONDASHISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Madina Xurramova Abdunazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Shabbazova D. R.

Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD). TerDU

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lif jarayoni vaqtida interfaol uslublar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni vaqtida foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ona tili fanini o'qitish jarayonini yanada shakllantirish borasida o'z isbotini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar haqida to'liq bayon etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublar, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, metodik ta'minot, boshlang'ich ta'lif, axborot texnologiyalar, rivojlantirish, shakllantirish, ta'lif texnologiyalar, o'quvchi ma'naviyati.

Kirish

Bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ularga milliy ruhiyatni, milliy mentalitetimizga xos ezgu jihatlarni singdirish muhim vazifalardan xisoblanadi. Milliy tarbiya deganda yosh avlodni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lif berish deganidir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tarbiya xususida fikr yuritib, jumladan, shunday ta'kidladilar: "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rinn egallashi tabiiyidir. Bu borada farzanddlarimiz uchun zarur shart-sharoit yaratish, yangi-yangi ta'lif-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lif va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"¹. Demak, ta'lif va tarbiya bugunning eng muhim ishi bo'libgina qolmasdan, kelajak uchun qo'yilgan sarmoya hamdir. Eng muhimi, bu masala yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bugungi ta'lif jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi

ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini ham bajaradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir qilish metodlari bo'lib ta'lismazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axborot — kommunikatsion texnologiyalari barcha sohalar qatori ta'lismiziga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Jumladan, axborotlashtirilgan multimediali ta'lismiz texnologiyalarini boshlang'ich ta'limga joriy etish orqali o'tiladigan fanlar mazmunini o'quvchilar ongiga to'liq va mukammal ravishda singdirish, innovatsion vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari boshlang'ich ta'limga multymedia vositalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos afzalliklari ham bor. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin: – ta'limga ko'rgazmalilik eng asosiy o'rnlardan birini egallaydi; – o'quvchini izlanishga undaydi; – o'quvchi ta'limga jarayonini bir vaqtning o'zida ko'radi, uni eshitadi, o'quvchilarga kengroq qamrovdag'i va kattaroq hajmdagi materiallarni tezroq yetkazib beriladi; – o'quvchi tafakkurini faollashtiradi; – o'quvchi faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; – mashg'ulotlarni jonli va muloqotli tarzda olib borishga imkoniyat tug'iladi; – ta'lismazmuniga tegishli materiallarni kompyuter xotirasida saqlab ularni – o'quvchilarga xohlagan vaqtida yetkazish imkoniyati bo'ladi; – o'z-o'zini namoyish etish imkoniyatini beradi, ta'lismazmunini yoritishda animatsiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratiladi. Shuning bilan birga, maktabgacha ta'lismuassasalarida tarbiyalanuvchilarning va o'quvchi-yoshlarning ma'naviy tarbiyasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, shu orqali jamiyat ma'naviyatini shakllantirishga erishish mumkin. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalanish jarayonida o'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirib, uni mustahkamlab borish lozim. Albatta bu ishlarni oiladan boshlash kerak, ya'ni oilada farzandlarimizdagi ma'naviy sifatlarni tarbiyalashdan boshlash zarur, chunki ularga berilgan tarbiya o'zlarini bilan o'sib takomillashib boraveradi. Shuning uchun ham farzandlarimiz ma'naviyatini shakllantirish va uni yuksaltirishni avvalo oiladan, keyin esa bosqichma-bosqich uzlusiz ta'lismizda olib boriladi. Qolaversa, boshlang'ich ta'limga ona tili fani mazmuniga Vatan tuyg'usi, milliy g'urur, an'ana va milliy qadriyatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirish hamda muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saranjom-sarishtalik, odobli, mehnatsevar bo'lish kabi insoniy sifatlarni shakllantirib borish lozim. O'quvchilarga ma'naviy tarbiya berishni

quyidagi uch yo'nalishda olib borgan ma'qul: O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga ijobjiy ta'sirlar. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga salbiy ta'sirlar va ularni bartaraf etish. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning multimediali ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va undan amaliyatda keng foydalanishga erishish. Shuningdek, multimedia usuli ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega: axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; "Inson — kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo'ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o'quvchilarga ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi va bu o'z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi; o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi; o'quv faoliyatining ijobjiy motivini hosil qiladi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi; turli fikr va mulohazalarga diqqatni jalg qilishni o'rganadi; yangi fikr-mulohazani bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor bo'ladi. Bugungi kun o'quvchisi, ularning orzu-intilishi, qiziqishlari orasida ham katta farq bor. Shundan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ro'y berayotgan yangiliklardan vaqtida xabardor bo'lishi, o'z sohasiga doir zarur ilmiy yangiliklarni mehnat faoliyatiga tatbiq etishi, faqat darslikka tayanib qolmasdan, mavzu ko'lамини o'quvchilarga anglata bilishi, o'z ustida tinmay izlanishi, o'zida bor bilimlarni yanada kengaytira borishi lozim. Donishmandlarimiz aytganidek: «O'qitish — ikki barobar o'qish demakdir». Demak, har bir o'qituvchi-murabbiy bu o'gitga amal qilar ekan, aslo kam bo'lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o'qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o'z o'rni borligida. O'qituvchilik kasbining qator mas'uliyatlarini sanab o'tish mumkin. Bular qatoriga bola ruhiyatini o'rganish, undagi salbiy jihatlarga qarshi kurasha olish, o'quvchilari qalbida o'z faniga qiziqish uyg'otish barobarida Vatanga, oilaga, ota-onaga, do'stlariga nisbatan mehr-muhabbatli qila olish, har bir o'quvchining oilaviy sharoitini o'rganib, otaonasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabilarni kiritish mumkin. Biz o'qituvchilar yosh avlod ongiga shakl beruvchi, ularni yuksak pog'onalarga olib chiquvchi sharafli kasb egalari ekanligimizni ham unutmasligimiz kerak. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi har bir inson uchun hayotda bilishi shart hisoblangan to'g'ri so'zlash, ifodali o'qish, o'z fi krini mustaqil bildira olish, og'zaki va yozma nutq hamda savodxonlikning imkon qadar yuqori darajasini egallahshlarida ko'prik vazifasini bajaradi. Bu ham uning zimmasidagi mas'uliyatning bir ko'rinishidir. O'qituvchi xalqi shunday xalqki, u har bir o'quvchisini o'z farzandidek qabul qiladi, uning yutug'idan to'libtoshib faxrlanadi, iztirobiga bab-baravar sherik bo'ladi. Ba'zi hollarda ayrim o'quvchilarning og'ir oilaviy sharoiti, ota-onasi qaramog'ida emasligi va bu uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, ba'zan bolalar tarbiyasi faqat muktabdagina nazorat ostida bo'lishi, bunday o'quvchilarning

muntazam darslarda qatnashmasligi kabilar o‘qituvchilarimiz dilini xiralashtiradigan jihatlar hisoblanadi, chunki o‘qituvchi uchun bolaning begonasi bo‘lmaydi, u barchasini o‘z farzandidek ko‘rib yashaydi... Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko‘plab topsa bo‘ladi. Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi va ularni ta’lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o‘ziga xos innovatsion jarayon bo‘lib, bunda o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiatida o‘zining munosib o‘rnini egallashi jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta’lim sohihasida o‘zaro hamkorlikni o‘rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o‘tgan qisqa davr ichida ta’lim tizimida juda katta o‘zgarishlar bo‘ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo‘ldik. Ma’lumki, fan va ta’lim doimo birlikda va o‘zgarishda rivojlanadi. Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o‘rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o‘qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e’tibor juda katta bo‘lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta’lim sohasiga kirib kelishi - bu ta’limda tub burulish davri bo‘ldi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o‘quv jarayonida asosiy boshqaruvchi -o‘qituvchi, boshqariluvchi - o‘quvchifaoliyati birkalgda yo‘naltiriladi va bu jarayonda o‘qituvchidan ham o‘quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida qo’llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o‘quvchilarning yuksak bilim cho‘qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o‘z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo‘lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o‘qituvchi dars o‘tishdan oldin darsda qo’llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o‘rganishi va tadqiq qilishi lozim. Pedagog - ya’ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o‘rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o‘rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anabiy uslubda ish olib bordik. To‘g’ri, bu tizimda ham bolalarga billim berildi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari shakllantirildi. O‘qituvchi ham o‘quvchi ham bir qobiqda harakat qildi, buni qoliplangan tizim desak ham bo‘ladi, har ikkalasida ham ma’suliyat yo‘qoldi.

Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiv, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o‘qituvchining mahoratiga bog’liq. FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (o‘quvchilarning o‘quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo’llanishi mumkin, chunki bu texnologiya o‘quvchilarning o‘z fikrini himoya qilishga, mustaqil va erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga asosli ravishda ifoda etishga, ochiq

holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda o'quvchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'llimda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallahashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator oqitish usullari haqida soz yuritilmoxda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'llanishi mumkin bolgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.

1. Modulli talim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihatni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda oqitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga orgatadi, ular o'rtaida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyshtirish va xulosalar to'g'rilingini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik oyinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Sinov darslari. Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, oqituvchi oquvchini oquv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O'qitishning yangi interfaol shakllari - ta'lif-tarbiya masalalarini unumli yechishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri. Xorijiy davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan bu metod ya'nii interfaol metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda oaquvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun - mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o'quvchilardan "Ushbu so'z sizlarda qanday tessavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?" - deb so'raydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O'quvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o'qituvchi iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'qituvchi tahlil qilib berishi kerak. Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda, o'quvchiga o'qiladigan materiallarni 1 hafta oldin tavsiya etsa, o'quvchi dam oladigan shanba, yakshanba kunlarida bekor qolmaydi. Albatta, bunda ota-onan nazorati o'ta muhim. .

3. Anglash bosqichi. Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahs-munozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshitilib, o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi.

Ta'limdi innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad - o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o'ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir. Innovasion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining

markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lif jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi onging predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lif beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida, rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo'lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir. Innovasion texnologiyalarni ta'lif jarayoniga joriy qilish, ta'lif samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni ta'lif jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education,2020.
2. Shayxislamov, N., & Baykabilov, U.Til – millatning ma'naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari ,2020.
3. Xolbekov, S. B.Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education,2020.

4. Maftuna Shuhrat qizi Ziyaqulova, Feruza Abdullayevna Xayitova. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini shakllantirishda rasmlarning o'rni // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/savod-o-rgatish-darslarida-o-quvchilarning-kreativ-qibiliyatini-shakllantirishda-rasmlarning-o-rni](https://cyberleninka.ru/article/n/savod-o-rgatish-darslarida-o-quvchilarning-kreativ-qobiliyatini-shakllantirishda-rasmlarning-o-rni) (дата обращения: 23.02.2023).
5. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.
6. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi " Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03> Иссye06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка
7. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, " Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process" Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar Тошкент
8. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023
9. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021
10. BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021
11. Оллокурова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концептанизма. Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>
12. Toshpulatova Niyokhon Shavkatjonovna// A Creative Approach to Teaching Geometry in the Primary Grades//International Journal on Orange Technologies//48-53-bet
13. kizi, Z. M. S. . (2023). Technologies of Creative Approach to the Development of Speaking Competences of Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 189–192. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1138>

-
14. Ziyaqulova, M., Ashurova, S., & Toshpulatova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI. Development and innovations in science, 2(3), 92-98.
15. Qizi, Z. M. S. (2021). Enhancing Creativity In The Process Of Developing Students' Speech. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 140-143.
16. Qizi, Z. M. S. (2021). The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 182-185.
17. Ziyaqulova, M. S. Q., & Xayitova, F. A. (2021). SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RASMLARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(7), 7-12.
18. Ziyaqulova, M. S. Q., & Raxmatova, H. I. Q. (2021). BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1503-1509.